

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
DSC.35/30.12.2019.ISL/TAR/F.57.01 RAQAMLI ILMY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI**

**MUMINOVA MAFTUNA BEGALI QIZI**

**ALISHER NAVOIY IJODIY MEROSIDA USTOZ-SHOGIRD  
AN‘ANASINING AKSILOGIK TALQINI**

**24.00.04 – Mumtoz sharq adabiyoti va manbashunosligi**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on  
philological sciences**

**Muminova Maftuna Begali qizi**

Alisher Navoiy ijodiy merosida ustoz-shogird an'anasining aksiologik talqini..... 3

**Muminova Maftuna Begali qizi**

Axiological interpretation of the master-disciple tradition in the creative heritage of  
Alisher Navoi ..... 23

**Муминова Мафтуна Бегали кизи**

Аксиологическая интерпретация традиции учитель-ученик в творческом  
наследии Алишера Навои ..... 43

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....47

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI  
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI  
DSC.35/30.12.2019.ISL/TAR/F.57.01 RAQAMLI ILMY KENGASH  
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON XALQARO ISLOM AKADEMIYASI**

**MUMINOVA MAFTUNA BEGALI QIZI**

**ALISHER NAVOIY IJODIY MEROSIDA USTOZ-SHOGIRD  
AN‘ANASINING AKSILOGIK TALQINI**

**24.00.04 – Mumtoz sharq adabiyoti va manbashunosligi**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2024**

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Isl89 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya O'zbekiston xalqaro islom akademiyasida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengash web-sahifasida ([www.ii.au.uz](http://www.ii.au.uz)) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida ([www.ziyounet.uz](http://www.ziyounet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Kamilov Muzaffar Muratovich**

tarix fanlari nomzodi, dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Sodiqov Qosimjon Pozilovich**

filologiya fanlari doktori, professor

**Davlatov Olimjon Davlatovich**

filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.35/30.12.2019.Isl/Tar/F.57.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil "\_\_\_" mart soat \_\_\_ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100011, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 11-uy, Tel.: (99871) 244-00-56, Faks: (99871) 244-00-65, e-mail: [info@ii.au.uz](mailto:info@ii.au.uz). O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston xalqaro islom akademiyasining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100011, Toshkent shahri, A.Qodiriy ko'chasi, 11-uy, Tel.: (99871) 244-00-56, Faks: (99871) 244-00-65, e-mail: [info@ii.au.uz](mailto:info@ii.au.uz). O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi)

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "\_\_\_" fevral kuni tarqatildi.  
(2024-yil "16" fevraldagi 3-raqamli reestr bayonnomasi).

**D.R. Maxsudov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik kengash raisi, tarix fanlari doktori, professor

**N.A. Muhamedov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik kengash kotibi, tarix fanlari doktori, dotsent

**Z.M. Islamov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon adabiyot-shunosligida qadriyatlar (grek. ἀξία) alohida e'tiborga loyiq mavzulardan bo'lib, ularni tashuvchi ustoz-shogird an'anasi ma'naviyatni rivojlantirish, avlodan-avlodga yetkazish, ularni yanada boyitishda o'z muhim o'rniga ega. Sharq musulmon adabiyotida Alisher Navoiy (علي شير نوايي) o'zining boy ilmiy-ma'naviy merosi bilan yuksak e'tirofga sazovor bo'lgan. Shoirning "Xamsa"si, devon va manonqiblari ustoz-shogird (أستاذ – شاگيرد) masalasining umuminsoniy qadriyatlar tizimidagi o'rni, ijtimoiy-axloqiy mazmuni o'ziga xos yoritilgani, nasr va nazm uyg'unligiga erishilgani hamda hikmatlar va turli qissalardan unumli foydalanilgani bilan katta ahamiyat kasb etadi.

Dunyo ilm-fanida xalqlarning ilmiy-falsafiy taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan buyuk siymolarning ma'naviy merosini ijtimoiy hayotga tatbiq etishga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Ularda Alisher Navoiy qarashlarini umuminsoniy qadriyatlar tizimida qiyosiy tadqiq etish va hozirgi ma'naviy taraqqiyot jarayonidagi ilmiy mohiyatini ochib berish, ijtimoiy-axloqiy mazmunini yoritishga doir aksiologik konsepsiyalarni ishlab chiqishga e'tibor qaratilmoqda. Mutafakkirning asarlarida ustoz-shogird (أستاذ – شاگيرد) masalasi borasidagi mavjud yondashuvlar zamirida zamonaviy axloqiy tarbiyani yaratish, uning ma'naviy komillikka yetishishga oid qarashlarini tizimli tadqiq qilish ushbu sohada olib borilayotgan tadqiqotlar salmog'ini oshirishga xizmat qiladi.

Yangi O'zbekistonda milliy ma'naviyat tarixida o'chmas iz qoldirgan ulug'allomalar, mutafakkirlar ilmiy-ma'naviy merosini o'rganish, ularni jamoatchilikka yetkazishga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Natijada, ustoz-shogird masalasining diniy, axloqiy tamoyillari yoritilgan Abu Muqotil Samarqandiyning "al-Olim val-mutaallim" (العالم والمنعلم), Burhoniddin Zarnujiyning "Ilm olish sirlari" (تعليم المتعلم طريق) kabi asarlari o'zbek tiliga tarjima qilindi. Alisher Navoiyning ijodiy merosida muhim mavzulardan hisoblangan ustoz-shogird an'anasining aksiologik talqinini o'rganish hamda undan bugungi fan-texnika asrida yuqori salohiyatga ega, chuqur malakali, har tomonlama kamolotga yetgan, keng dunyoqarashga ega yosh kadrlarni tarbiyalashda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi, 2018-yil 16-apreldagi PF-5416-son "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2022-yil 29-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 24-maydagi PQ-2909-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarida hamda sohaga doir boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** XIX–XX asrlarda dunyo sharqshunosligida Alisher Navoiy shaxsiyati va ijodiga bo‘lgan qiziqish yaqqol ko‘zga tashlanadi. Y. Bertels, X. Toren, J. Ekman, A. Pulyavin, A. Boldirev, Y. Svidina singari adabiyotshunos hamda sharqshunos olimlarlar tomonidan Alisher Navoiy ijodi va faoliyati tizimli ravishda tahlil qilingan<sup>1</sup>.

O‘zbek olimlaridan<sup>2</sup>: N. Mallayev, A. Qayumov, S. G‘aniyeva, A. Hayitmetov, A. Abdug‘afurov, A. Rustamov, O. Sharafuddinov, T. Jalolov, V. Zohidov, Yo. Is‘hoqov, A. Quronbekov, M. Imomnazarov kabi adabiyotshunoslarning ilmiy tadqiqotlari Alisher Navoiy shaxsiyati va ijodiga bag‘ishlangan, A. Erkinov doston asosida Navoiyning peyzaj yaratish, D. Yusupova mazmun va ritmni uyg‘unlashtirish mahoratiga e‘tibor qaratishgan.

F. Abdurahimova, A. Aliyev, N. Komilov, O. Musurmonova, D. Qosimova, A. Haydarovning ilmiy ishlarida qadriyatlar muammosi adabiyotshunoslik, madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan o‘rganilgan<sup>3</sup>. Z. Rahmonovanning tadqiqotida<sup>4</sup>

---

<sup>1</sup> Бертельс Е. Избранные труды: Навои и Джамии. – М.: Наука, 1965. – 498 с.; Он же. Суфизм и суфийская литература. – М.: Наука, 1965. – 524 с.; Он же. Избранные труды. Том 4. Навои и Джамии. – М.: Наука, 1965. – С. 283-368.; Tören H. Alî Şîr Nevâyî Sedd-i İskenderî (İnceleme-Metin-Dizin). Doktora Tezi. – İstanbul: 1990; Eckmann J. Nevaî'nin İlk Divanları Üzerine // Türk Dili Araştırmaları Yıllığı Belleten. 1971. – S. 253-269; Пулявин А.А. Гений в сердцах. – М., 1978; Болдырев А.Н. Персидские переводы “Маджалис ан-Нафаис” Навои // Учёные записки ЛГУ. – Л., 1952 – Сер. 128. – Вып. 3.; Свидина Е.Д. Алишер Навои. Биобиблиография (1917–1966). – Т., 1968.

<sup>2</sup> Маллаев Н. Ўзбек адабиёти тарихи. – Т.: Ўқитувчи, 1976. – 664 б.; Ўша муаллиф. Навоий ижодиётининг халқчил негизи. – Т.: Ўқитувчи, 1980. – 360 б.; Қаюмов А. Алишер Навоий. – Т.: Ёш гвардия, 1976. – 314 б.; О‘sha muallif. Садди Искандарий. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1975. – 196 б.; Хайитметов А. Навоийнинг ижодий методи масалалари. – Т.: Ўзфанашир, 1963. – 173 б.; Ўша муаллиф. Алишер Навоий ижоди жаҳон адабиёти контекстида // Алишер Навоий ижодий мероси ва унинг жаҳоншумул аҳамияти. – Т.: Фан, 2001. – Б. 5-7.; Абдуғафуров А. Навоий ижодида сатира. – Т.: Фан, 1972. – 260 б.; Ўша муаллиф. Буюк бешлик сабоқлари. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1995. – 184 б.; Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1979. – 216 б.; Шарафуддинов О. Алишер Навоий. – Т.: Ўздавнашир, 1948. – 137 б.; Жалолов Т. “Хамса” талкинлари. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1968. – 253 б.; Зоҳидов В. Улуғ шоир ижодининг қалби. – Т.: Ўзбекистон, 1970. – 495 б.; Исҳоқов Ё. Нақшбандия таълимоти ва ўзбек адабиёти. – Т.: Абдулла Қодирий, 2002. – 119 б.; Қуронбеков А. Алишер Навоийнинг “Хамса” дostonларида рамз ва тимсоллар. – Т.: Фан ва технология, 2015. – 228 б.; Имомназаров М. Навоийшуносликка кириш. – Т., 2015. – 186 б.; Эркинов А. Алишер Навоий “Хамса”си талкиннинг XV–XX аср манбалари. Филол. фан. доктори. дисс. – Т., 2008. – 186 б.; Юсупова Д. Ўзбек мумтоз ва миллий уйғониш адабиёти (Алишер Навоий даври). – Т.: Тамаддун, 2016. – 304 б.

<sup>3</sup> Абдурахимова Ф. Оила – маънавият ва қадрият бешиги. – Т.: Истиклол, 2009. – 223 б.; Алиев А. Маънавият, қадрият ва бадиият. – Т.: Академия, 2000; Комилов Н. Тасаввуф ёки комил инсон ахлоқи. – Т.: Ёзувчи, 1996. – 272 б.; Мусурмонова О. Маънавий қадриятлар ва ёшлар тарбияси. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 192 б.; Қосимова Д. Ўқувчиларда миллий-маънавий қадриятларни эгаллаш эҳтиёжини шакллантириш. – Т.: Фан, 2009. – 191 б.; Хайдаров А. Инсон камолоти ва миллий-маънавий қадриятлар. –Т.: Мухаррир, 2008. – 140 б.

<sup>4</sup> Раҳмонова З. Ишқ, ирфон ва иршод. – Т.: Тафаккур томчилари, 2021. – 264 б.

pir va murshidlar ta'lim-tarbiyada badiiy ijod imkoniyatlaridan ham foydalanishgani ilk bor muvaffaqiyatli yoritib berilgan.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi ilmiy-tadqiqot ish rejasining 2020–2022-yillarga mo'ljallangan FZ-202002146 “Markaziy Osiyo mutafakkirlarining asarlari asosida buzg'unchi g'oyalarga qarshi ma'rifiy, tarbiyaviy kurash asoslarini o'zida jamlagan multimedia dasturi hamda mobil ilovasini yaratish” mavzusi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Alisher Navoiy merosida ustoz-shogird an'anasi muammosini aksiologik talqin asosida mohiyatan ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

Sharq mumtoz adabiyotida ustoz-shogird an'anasini o'rganishning ilmiy-nazariy asoslarini aniqlash;

ustoz-shogird an'alarini aksiologik talqin qilish adabiy an'anasining tarixi va yondashuvlarini ochib berish;

Alisher Navoiy dostonlarida pir (ustoz) va murid (shogird) obrazlari badiiy ifodalanishining o'ziga xos jihatlarini yoritib berish;

Navoiy manoqiblarida “ustoz-shogird” an'anasi badiiy ifodasining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash;

Navoiy she'riy merosida ustoz-shogird an'anasining ifodalanish xususiyatlarini dalillash;

Alisher Navoiy g'oyalarining zamondosh va keyingi davr adiblari ijodidagi badiiy talqinini qiyosiy tahlil qilish orqali amaldagi ustoz-shogird tizimiga uyg'unlashtirishning ahamiyatli jihatlarini yoritish hamda taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** Alisher Navoiyning “Xamsa”si, manoqiblari, tazkiralari, badiiy va ilmiy-ma'rifiy asarlaridan iborat.

**Tadqiqotning predmetini** Alisher Navoiy ma'naviy merosidagi ustoz-shogird qadriyatiga oid she'r, hikmat, qissa va hikoyalar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya mavzusini yoritishda tavsiflash, kuzatish, taqqoslash, qiyosiy-tarixiy tahlil metodlaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Alisher Navoiyning “ustoz-shogird” (استاذ – شاگرد) tushunchasini ilk bor tizimli ravishda 5 ta asar, 3 ta manoqib, 20 ga yaqin she'rlarida turkiy xalqlar xususiyatlariga uyg'un holda tasavvufiy talqin asosida ifodalashi turkiy adabiyotda aksiologik tizimning shakllanishiga ta'sir etgani dalillangan;

shoir ijodida “ustoz” (أستاذ) va “shogird” (شاگرد) tushunchalarining “pir” (پير), “murid” (مرید) obrazlari orqali badiiy ifodalanishi XV asr jamiyatida keng tarqalib, islom ta'limotida tarbiyaning ta'sirchan uslubi tasavvufiy-irfoniy qarashlar asosida ekanligi isbotlangan;

Navoiy “ustoz-shogird” an'anasi targ'ibotchisi ekanligi va uning: Fariduddin Attor, Abdurahmon Jomiy, Sayyid Hasan Ardasher, Xoja Fazlulloh Abulays Samarqandiy, Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy singari ustozlariga ehtiromi

badiiy adabiyotning ta'sirchan shakli - allegoriya (hudhud va boshqa qushlar) yordamida ifodalangani asoslangan;

Navoiy asarlarida talqin etilgan ustoz-shogird an'anasini o'zida aks ettirgan "uvays" (أويس), "ma'naviy ustoz", "ruhiy tarbiyachi" tushunchalarining keyingi davr ijodkorlari adabiy merosida davom ettirilgani - Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammadrizo Ogahiy, Shermuhammad Munis, Boborahim Mashrab, Muhammadaminxo'ja Muqimiy, Jahon otin Uvaysiyning falsafiy-badiiy qarashlari asosida dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Sharq mumtoz adabiyotida ustoz-shogird an'anasi, tarixi, ustoz-shogirdlik munosabatini aksiologik talqin qilish adabiy an'ana sifatida o'rganilib, Alisher Navoiy ijodiy merosida ustoz-shogird munosabatlaridagi o'ziga xos qadriyatlar tizimi ilmiy muomalaga kiritilgani dalillangan;

Navoiy asarlarida ustoz-shogird tizimi "chin ko'ngil bilan qabul qilish va vujud a'zolari orqali amalga oshirish" tamoyili asosida tasavvufiy xarakterda talqin etilgani Abduxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Farididdin Attor, Husayin Voiz Koshifiy qarashlari asosida 20 ta ibratli o'git va 5 ta rivoyatning qiyosiy tahlili vositasida isbotlangan;

Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonida, "Lisonu-t-tayr" asarida pir (ustoz) va murid (shogird) obrazlari badiiy tasviri, manoqiblarda "ustoz-shogird" an'anasining badiiy ifodasi manbalardagi obrazlar, keltirilgan tahlillar asosida ochib berilgan;

shoir lirikasi va tazkiralardagi ustoz-shogird an'anasining qiyosiy tadqiqi orqali uning falsafiy-axloqiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlari va aksiologik yondashuvlarining o'ziga xos jihatlari aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** nazariy ma'lumotlarning aniq ilmiy manbalardan olingani, qo'yilgan muammoning aniq va yetarlicha dalillangani, tadqiqot natijasida chiqarilgan xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi hamda vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani, dunyo adabiyotshunosligining yangi yo'nalishlari, tahliliy usullari asosida ilmiy-nazariy asoslangani bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ilgari surilgan Alisher Navoiy merosida ustoz-shogird an'anasidagi o'ziga xos qadriyatlar va mushtarakliklar borasidagi nazariy xulosalar ustoz-shogirdlik munosabatini aksiologik talqin qilish, sharq mumtoz adabiyotida, hozirgi adabiy jarayonda kuzatilayotgan yangilanishlarni o'rganishga doir ilmiy tadqiqotlarga asos bo'lib xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyadagi xulosa va tavsiyalardan oliy ta'lim muassasalari uchun "O'zbek adabiyoti tarixi", "Adabiyotshunoslik nazariyasi", "Navoiyshunoslik", "Manbashunoslik" kabi darslik va o'quv qo'llanmalar mazmunini boyitishda, Navoiy poetikasining aksiologik talqinlarini o'rganishga oid maxsus kurs va seminarlar tashkil etishda, Alisher Navoiy ijodiy merosi, aksiologiya haqida ma'ruzalar o'qishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Alisher Navoiy ijodiy merosida ustoz-shogird an'anasining badiiy talqini masalasini tadqiq etish hamda uning nazariy asoslarini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Alisher Navoiyning "ustoz-shogird" (استاذ – شاگيرد) tushunchasini ilk bor, tizimli ravishda, 5 ta asar, 3 ta manoqib, 20 ga yaqin she'rlarida turkiy xalqlar xususiyatlariga uyg'un holda tasavvufiy talqin asosida ifodalashi turkiy adabiyotda aksiologik tizimning shakllanishiga ta'sir etgani dalillangani xususidagi xulosalar buyurtma asosida tayyorlangan "Mumtoz sharq adabiyoti" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitaning 2023-yil 17-iyuldagi 02-02/1-5305-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, talabalarda Alisher Navoiyning "ustoz-shogird" an'anasiga doir qarashlarida tasavvufiy talqinining o'ziga xos jihatlari borasidagi tushunchalarning shakllanishiga xizmat qilgan;

shoir ijodida "ustoz" (أستاذ) va "shogird" (شاگيرد) tushunchalari "pir" (پير), "murid" (مريد) obrazlari orqali badiiy ifodalanishi XV asr jamiyatida keng tarqalib, islom ta'limotida tarbiyaning ta'sirchan uslubi tasavvufiy-irfoniy qarashlar asosida ekanligi isbotlangani xususidagi xulosalardan Yoshlar siyosati va sport vazirligi buyurtmasi asosida tayyorlangan "Jadidlar" to'plamida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligining 2023-yil 5-iyuldagi 4-13-21-1814-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, kitobxonlarning Alisher Navoiy ijodiy merosida ustoz-shogird an'anasi hamda uning jahon adabiyotshunosligida tutgan o'rni haqidagi tushunchalarining kengayishiga xizmat qilgan;

Navoiy "ustoz-shogird" an'anasi targ'ibotchisi ekanligi va uning Fariduddin Attor, Abdurahmon Jomiy, Sayyid Hasan Ardasher, Xoja Fazlulloh Abulays Samarqandiy, Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy singari ustozlariga ehtiromi badiiy adabiyotning ta'sirchan shakli bo'lgan allegoriya (hudhud va boshqa qushlar) yordamida ifodalangani asoslangani xususidagi xulosalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi buyurtmasi asosida tayyorlangan "Ma'naviyat. Asosiy tushunchalar lug'ati" kitobida foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi "Ma'rifat" targ'ibotchilari jamiyatining 2023-yil 28-iyuldagi 01/04-211-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Alisher Navoiyning barkamollikka undovchi ma'naviy, ilmiy, falsafiy g'oyalarning jamoatchilik ongida umuminsoniy qadriyatlar kasb etuvchi to'plam sifatida namoyon bo'lishiga xizmat qilgan;

Navoiy asarlarida talqin etilgan ustoz-shogird an'anasini o'zida aks ettirgan "uvays" (أويس), "ma'naviy ustoz", "ruhiy tarbiyachi" tushunchalarining keyingi davr ijodkorlari adabiy merosida davom ettirilgani - Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammadrizo Ogahiy, Shermuhammad Munis, Boborahim Mashrab, Muhammadaminxo'ja Muqimiy, Jahon otin Uvaysiyning falsafiy-badiiy qarashlari asosida dalillangani xususidagi ilmiy xulosalardan "Hadis va hayot" kitobini yaratishda ijodiy foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazining 2023-yil 4-avgustdagi 05-13/76-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Navoiy ijodiy merosidagi badiiy ifodaga oid ustoz-shogird an'anasi talqini ilmiy to'plam va kitoblarni boyitishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 7 ta, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta, jumladan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnalda nashr qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Tadqiqotning hajmi 128 betdan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Mumtoz sharq adabiyotida ustoz-shogird an'anasini o'rganishning metodologik asoslari**" deb nomlanadi. Uning "*Sharq mumtoz adabiyotida ustoz-shogird an'anasini o'rganishning ilmiy-nazariy ahamiyati*" deb nomlangan birinchi faslida diniy, tasavvufiy manbalarda ustoz-shogird an'anasi va uning sharq mumtoz adabiyotidagi o'rganilish tarixi, ustoz va shogird an'anasining milliy qadriyatimizdagi o'rni hamda uning g'oyalari tadqiq etilgan.

Abu Nasr Forobiy: "Inson fazilatlar bilan kamolotga yetadi va kamolotga yetgan odam baxtli hisoblanadi",<sup>5</sup> deydi. Abu Rayhon Beruniy inson tarbiyasiga salbiy ta'sir qiluvchi illatlar haqida fikr yurita turib, ular ko'p hollarda yovuz niyatda qilinishini qayd yetadi. Ibn Sino esa, "Insonlar o'rtasida o'zaro kelishuv zarur bo'lib, bu kelishuv tufayli adolat qoidalari va qonunlari o'rnatiladi. Qonunshunos esa, bu qoidalarga bajarilishi shart bo'lgan majburiyat tusini beradi"<sup>6</sup>, deb hisoblaydi. Ustoz va shogird qadriyati Sharq adabiyoti namoyandasi Sa'diy Sheroziyning "Guliston" asarida ham alohida mavzu o'laroq o'z ifodasini topgan. "Guliston"ning ikkinchi bobi "Darveshlar axloqi bayoni" deb ataladi. Undan anglashilganidek, asosiy hikoyatlar shayx, darvesh, xudojo'y, pir, murid, faqihlar haqida. Bir hikoyatda pir va murid haqida gap boradi<sup>7</sup>. "Guliston"ning 7-bobi – "Tarbiyaning ta'siri bayoni"da ham ana shu tomonlarni ko'ramiz.

Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomayi sultoniyy" kitobida ustoz qanday bo'lishi, shogirdlik shartlari nimalardan iborat ekani haqida batafsil ma'lumot beriladi: "Agar komil ustoz kim deb so'rasalar, u pok mazhabli, o'z aybini ko'radigan, dono va tamizli kishidir deb aytgil. Unda hasad, gina va baxillikdan asar

<sup>5</sup> Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. – Т.: Фан, 1972. – Б. 68

<sup>6</sup> Ибн Сино. Изб. Филос. Произведения.– М.: Наука, 1980. – 478 с.

<sup>7</sup> Саъди Шерозий. Гулистон. – Т.: Фафур Фулом, 1968. – Б. 56-58.

ham bo‘lmasligi kerak”<sup>8</sup>. Ali Ibn Husayn Sug‘diy (XI asr)ning “Kitobu-l-huququ-l-xamsin” asarida musulmon odamning ota-onasi va yaqinlari kabi ustozni oldidagi burchlari bilan bir qatorda, ustozning shogird oldidagi va shogirdning ustoz oldidagi haqlariga doir hikmatlar bayon yetiladi<sup>9</sup>. Muslim Samarqandiyning “Ustoz va Shogird” asariga to‘xtalish joizdir. Ushbu kitobning nomi, garchi “العالم و المتعلم” – “Olim va ta’lim oluvchi”, degan ma’noni anglatganda, u “Ustoz va shogird”, deb tarjima qilinadi. Zero, kitob Abu Hanifa bilan uning shogirdi Imom Abu Muti’ Balxiy savol-javoblari asosida tahlil etilgan<sup>10</sup>. Burhoniddin Zarnujiy (XII asr)ning “Ta’limu-l-muta’allim tariqatu-t-ta’allum”<sup>11</sup> (“Ilm o‘rganuvchiga ilm olish yo‘llarini o‘rgatish”) asarida ustoz-shogird munosabatlarida ustozni tanlash ham muhim mezon ekanligi uqtiladi. Alloma aytadiki: “Ustoz tanlashda ikki oy uzoq o‘yla (kimlar bilandir) maslahat qil, toki uni tark qilishga, undan yuz o‘girishga hojat qolmasin. Bas, undan so‘ng uning oldida sobit tur, shunda ilming barokotli bo‘lgay. Ilmingdan ham ko‘p manfaat topgaysan”<sup>12</sup>.

*“Ustoz-shogird an‘analarini aksiologik talqin qilish adabiy an‘ana sifatida”* deb nomlanuvchi birinchi bobning ikkinchi faslida ustoz-shogird adabiy an‘anasi tahlil qilingan. Ma’lumki, an‘ana tarixiy xarakterga ega. Insoniyat qanchalik qadimiy bo‘lsa, uning an‘analari ham shunchalik qadimiydir. Shuningdek, ustoz-shogird an‘analari ham qadimdan mavjud. Ustoz-shogird an‘analari turmush talabidan tarixiy zaruratdan kelib chiqqan.

Payg‘ambar Muhammad (s.a.v)ga risolat berilgandan so‘ng, u zot mo‘minlar uchun haqiqiy o‘rnak – ustoz bo‘la boshladi.

Piri murshid - ustozlik maqomining oliy darajasi. Tarixda bunga misollar juda ko‘p. Murid pir huzurida o‘n-o‘n besh yillab xizmat qilgan, ilmi g‘ayb, ilmi hol va ilmi qol sirlarini mukammal egallaganidan so‘ng pirining fatvosi bilan mustaqil faoliyat olib borgan. O‘tmishda tasavvuf ilmida yetishib chiqqan buyuk allomalarimiz o‘z pirlariga sadoqat bilan xizmat qilishgan. Tasavvuf ta’limotidagi ustoz-shogirdlik an‘analarining o‘ziga xosligi shundaki, shogirdlarining axloqiy-ma’naviy komillik darajasiga erishishida, shuningdek, ilm-u ma’rifatni egallashida, avvalo, ustozlarning o‘zlari har tomonlama shogirdlariga namuna bo‘lishgan.

Navoiy Fariddin Attorni o‘zining ma’naviy ustozni deb bilgan va umrining oxirlarida “Lisonu-t-tayr” dostoni orqali unga o‘z ehtiromini ifoda etgan. Buyuk mutafakkir ijodida ustoz va shogird munosabati masalasi bir nechta yo‘nalishda namoyon bo‘ladi. Navoiyning bu boradagi fikrlari e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan muhim nazariy qarashlardir. “Lisonu-t-tayr”da qushlarning ustoz o‘rnidagi Hudhudga itoat bilan ergashib, murodga erishganlari misolida ham Alisher Navoiyning aynan

<sup>8</sup> Хусайн Воиз Кошифий. Футувватномаи султоний. – Т.: Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси, 2011. – 376 б.

<sup>9</sup> Али Ибн Хусайн Суғдий. Китоб ал-хуқуқ алхамсин. ЎЗР ФА Шарқшунослик институти фондидаги №1492 рақамли қўлёзма.

<sup>10</sup> Рустамов Б. Ўрта аср шарқида устоз-шогирд алоқалари (Муслим ас-Самарқандийнинг (العالم و المتعلم) “Устоз ва шогирд” асари мисолида). – Н., 2020.

<sup>11</sup> Бурхониддин аз-Зарнужий. Таълим ал-мутааллим тариқ ат-тааллум. Аждодларимиз маънавий меросидан. – Т.: Фан, 2014.

<sup>12</sup> Аждодларимиз маънавий меросидан. Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси. – Т.: Фан, 2014. – Б. 39-40.

ustoz va shogird masalasidagi qarashlari yorqin aks etgan. O‘z navbatida, Navoiyning o‘zi ham jonkuyar ustoz sifatida ko‘plab yosh san‘atkorlar, olimlar, shoir-u fozillarga homiylik qilgan. Zahiriddin Muhammad Boburning yozishicha, “Ahli fazl va hunarg‘a Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma‘lum emaskim, hargiz paydo bo‘lmish bo‘lg‘ay...”<sup>13</sup>.

Ustoz-shogird an‘anasi milliy qadriyatlarimizdan biridir. Qadriyat – voqelikdagi muayyan hodisalarning umuminsoniy, ijtimoiy-axloqiy, madaniy-ma‘naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan tushuncha. Jamiyatdagi mavjud qadriyatlar, o‘z navbatida, aks qadriyat deb nomlanuvchi zid ko‘rsatkichlarga ham ega. Musulmon Sharqi mamlakatlari ijtimoiy va ma‘naviy hayotiga chuqur kirib borgan hamda fan, madaniyat, adabiyot rivojiga katta ijobiy ta‘sir ko‘rsatgan tasavvuf ta‘limotida ham ustoz-shogirdlik (pir-muridlik) munosabatlari muhim ahamiyat kasb etgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” nomli kitobida qayd etilganidek: “... ma‘lumki, qadimiy va saxovatli zaminimizda ko‘p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab keladi. Mehmondo‘stlik, ezgulik, qalb saxovati va tom ma‘nodagi bag‘rikenglik xalqimizga doimo xos bo‘lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi”<sup>14</sup>.

Dissertatsiyaning “**Alisher Navoiy dostonlari va manoqiblarida ustoz-shogird an‘anasining badiiy ifodasi**” nomli ikkinchi bobi birinchi fasli “*Alisher Navoiy dostonlarida pir (ustoz) va murid (shogird) obrazlari badiiy ifodalanishi*” deb nomlangan. Hazrat Navoiy asarlarida ustozlik va shogirdlik munosabatlari, bu ikki toifaning fazilatlarini, piri komil sabog‘i bilan bir necha to‘siqlarni yengib o‘tgan muridlar badiiy timsollarda tasvirlanadi.

Navoiy ijodining ijtimoiy-falsafiy, adabiy-filologik masalalari ko‘pchilik olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Shoirning komil inson haqidagi o‘y-fikrlari o‘zining hayoti davomida yozib qoldirgan jamiki asarlariga yo‘g‘rilgan bo‘lsa-da, haqiqiy ma‘nodagi komil inson uning “Xamsa” asari obrazlari va timsollarida to‘la his qilinadi. Shuningdek, Navoiyning “Lisonu-t-tayr” dostonida ham musofir qushlar timsolida shaxs kamolotida ustozning mavqei haqida so‘z yuritadi. XII asrda shakllangan xamsachilik sakkiz asr mobaynida yuzlab javob dostonlarni yuzaga keltirdi. Ayrim ijodkorlar beshlik dostonning faqatgina bitta, ayrimlari ikkita, ba‘zilari uchta yoki to‘rtta dostonga javob yozgan bo‘lsalar, juda kam sonli ijodkorlar beshta dostonga javob yozishga muvaffaq bo‘lishgan. Ulug‘ ozarbayjon shoiri Nizomiy Ganjaviy Sharq she‘riyatida birinchi bo‘lib, “Xamsa” yozgan ijodkor sanaladi. Oradan bir asr vaqt o‘tgach, Xusrav Dehlaviy (1253–1325) Nizomiy “Xamsa”siga javob yozib, xamsanavislik an‘anasini davom ettirdi.

Shuningdek, mutafakkir “Hayrat-ul-abror”da ustoz ta‘limi va tarbiyaning ahamiyati haqida shunday yozadi:

---

<sup>13</sup> Комилов Н. Тасаввуф. – Т.: Movarounnahr-O‘zbekiston, 2009. – Б. 24.

<sup>14</sup> Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: O‘zbekiston, 2021. – Б. 305.

*Qatrağa çün tarbiyat etti sadaf,  
El başiğa çiqquça tapti şaraf* (HA, 167)<sup>15</sup>.

Alisher Navoiy o‘z asarlarida komil shogirdni zikr etar ekan, avvalo, o‘zi ham har jabhada purma‘no hikmatlariga muvofiq umr kechirgan. “Hayrat-ul-abror”da ustoz-shogirdlikning fazilatini yakunlar ekan, tavoze’ – kamtarlik bilan yozadi:

*Bolsa ot-suw-u havā dilpazir,  
Ul arq tufraq ham erür nāguzir.  
Sarv-u gul-u lāla xaridāri bar,  
Lek otinnīñ daği bāzāri bar* (HA, 55).

Ya’ni ustozlari ijodini olamning asosiy to‘rt unsuri: olov (o‘t), havo, suvga, o‘zini esa, tuproqqa, ularning asarlarini adabiyot chamanidagi sarv, gul, lolaga, o‘z asarlarini o‘tinga o‘xshatadi. Mutafakkir shoir farzandning solih, o‘z davri uchun qadrlı, barkamol shaxs bo‘lib yetishishida ustoz, ta’lim-tarbiya, ilm-u hunar muhim rol o‘ynashini alohida ta’kidlab o‘tadi.

Ta’lim-tarbiyada ustoz va shogird orasidagi asosiy vosita so‘z sanaladi. Ustoz rost va ta’sirchan so‘z vositasida shogirdga ruhiy-ma’naviy ta’sir o‘tkazish asnosida unda bilim va ko‘nikmalarni shakllantirib boradi. Shu jihatdan ustoz-shogird munosabatlarida rost, ta’sirchan so‘z eng muhim va katta ahamiyat kasb etadi.

---

<sup>15</sup> Dissertatsiyada Alisher Navoiy asarlari uchun foydalaniladigan qisqartmalar: LT – Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. Muqammal asarlar tўplami. 20 tomlik. 12-tom. – T.: Fan, 1996; BB – Alisher Navoiy. Badoeъ ul-bidoъ. Muqammal asarlar tўplami. 20 tomlik. 1-tom. – T.: Fan, 1987; NN – Alisher Navoiy. Navodir un-nihoy. Muqammal asarlar tўplami. 20 tomlik. 2-tom. – T.: Fan, 1987; G‘S – Alisher Navoiy. Faroyib us-sifar. Muqammal asarlar tўplami. 20 tomlik. 3-tom. – T.: Fan, 1988; NSH – Alisher Navoiy. Navodir ush-shabob. Muqammal asarlar tўplami. 20 tomlik. 4-tom. – T.: Fan, 1989; BV – Alisher Navoiy. Badoeъ ul-vasat. Muqammal asarlar tўplami. 20 tomlik. 5-tom. – T.: Fan, 1990; FK – Alisher Navoiy. Favoyid ul-kiabar. Muqammal asarlar tўplami. 20 tomlik. 6-tom. – T.: Fan, 1990; HA – Alisher Navoiy. Xayrat ul-abror. Muqammal asarlar tўplami. 20 tomlik. 7-tom. – T.: Fan, 1991; FSH – Alisher Navoiy. Farhod va Shirin. Muqammal asarlar tўplami. 20 tomlik. 8-tom. – T.: Fan, 1991; LM – Alisher Navoiy. Layli va Mажnun. Muqammal asarlar tўplami. 20 tomlik. 9-tom. – T.: Fan, 1992; SS – Alisher Navoiy. Sabъai сайёр. Muqammal asarlar tўplami. 20 tomlik. 10-tom. – T.: Fan, 1992; SI – Alisher Navoiy. Sадди Iskандariy. Muqammal asarlar tўplami. 20 tomlik. 11-tom. – T.: Fan, 1993; LT – Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. Muqammal asarlar tўplami. 20 tomlik. 12-tom. – T.: Fan, 1996; MN – Alisher Navoiy. Mажolis un-nafois. Muqammal asarlar tўplami. 20 tomlik. 13-tom. – T.: Fan, 1997; MQ – Alisher Navoiy. Mахбub ul-kuлub. Muqammal asarlar tўplami. 20 tomlik. 14-tom. – T.: Fan, 1998; M – Alisher Navoiy. Munshaot. Muqammal asarlar tўplami. 20 tomlik. 14-tom. – T.: Fan, 1998; V – Alisher Navoiy. Vақfiya. Muqammal asarlar tўplami. 20 tomlik. 14-tom. – T.: Fan, 1998; XM – Alisher Navoiy. Xамsat ul-mutaхаййirin. Muqammal asarlar tўplami. 20 tomlik. 15-tom. – T.: Fan, 1999; HSA – Alisher Navoiy. Xолоти Саййид Xасан Ардашер. Muqammal asarlar tўplami. 20 tomlik. 15-tom. – T.: Fan, 1999. HPM – Alisher Navoiy. Xолоти Пахлавон Mухаммад. Muqammal asarlar tўplami. 20 tomlik. 15-tom. – T.: Fan, 1999; NJ – Alisher Navoiy. Назм ул-жавоҳир. Muqammal asarlar tўplami. 20 tomlik. 15-tom. – T.: Fan, 1999; ML – Alisher Navoiy. Muxоkamat ul-luғtagayn. Muqammal asarlar tўplami. 20 tomlik. 16-tom. – T.: Fan, 2000; MA – Alisher Navoiy. Mezon ul-avzon. Muqammal asarlar tўplami. 20 tomlik. 16-tom. – T.: Fan, 2000; TAH – Alisher Navoiy. Tarixi anbiё va хukamo. Muqammal asarlar tўplami. 20 tomlik. 16-tom. – T.: Fan, 2000; TMA – Alisher Navoiy. Tarixi мулуки Ажам. Muqammal asarlar tўplami. 20 tomlik. 16-tom. – T.: Fan, 2000; SM – Alisher Navoiy. Siroj ul-muslimin. Muqammal asarlar tўplami. 20 tomlik. 16-tom. – T.: Fan, 2000; MJ – Alisher Navoiy. Muножot. Muqammal asarlar tўplami. 20 tomlik. 16-tom. – T.: Fan, 2000; RTA – Alisher Navoiy. Risolai тийр андохтан. Muqammal asarlar tўplami. 20 tomlik. 16-tom. – T.: Fan, 2000; NM – Alisher Navoiy. Nasoyim ul-muxabbat. Muqammal asarlar tўplami. 20 tomlik. 17-tom. – T.: Fan, 2001; DF<sub>1</sub> – Alisher Navoiy. Devoni Fоний. Muqammal asarlar tўplami. 18-tom. – T.: Fan, 2002; DF<sub>2</sub> – Alisher Navoiy. Devoni Fоний. Muqammal asarlar tўplami. 19-tom. – T.: Fan, 2002; DF<sub>3</sub> – Alisher Navoiy. Devoni Fоний. Muqammal asarlar tўplami. 20-tom. – T.: Fan, 2003.

“Hayrat-ul-abror”da keltirilgan Ayyubi xalaf va noxalaf o‘g‘ri haqidagi hikoyatda ayni shu holatning guvohi bo‘lish mumkin<sup>16</sup>. E’tibor berilsa, Navoiy dostonlarida o‘z ilmining yetuk peshvolarini parda ortida ta’riflaydi. Asarda ularni asosiy harakatdagi personaj sifatida bermaydi, ko‘z-ko‘z qilmaydi. Go‘yoki u bu ilmni va ushbu ilmning yetuk sohibini ummon tubidagi ikki qalqon ichidagi durga qiyoslaydi. Bu bejiz emas, bu yerda Navoiy ilmning zalvori, pinhoniyligi, ilm egalarining o‘zini kamtar, doim ko‘z-ko‘z qilmasligi, haqiqiy donish o‘zining oliy o‘rnini bilishi kerakligiga ishora qiladi. Shuningdek, Navoiy ustozlar qatorida qadimgi Eronning afsonaviy donishmandi va qur’andozi Jomospni ham tilga oladi:

*Māñā Jāmāspdīn erdi bu e’lām,  
Özidin sōñki yazmīš erdi ahkām<sup>17</sup>.*

“Navoiy dostonining asosiy boblaridagi hikmat qismida Iskandar ko‘pincha Arastuga savol bilan murojaat qiladi. Bu yo‘l faqat yetmish uchinchi bobning uchinchi qismida Suqrotga va yetmish yettinchi bobning uchinchi qismida Luqmonga murojaat qilish bilan o‘zgargan xolos” (SI, 695). Jumladan, bosh qahramon Iskandarning adolatli shoh, umuman, inson degan zot, raiyat manfaati, orzu-istaklari haqidagi dunyoni o‘ylantirgan savollari ustoz Arastu bilan savol-javoblari orqali o‘z yechimini topadi.

Alisher Navoyning ustoz-salaflari va shogirdlariga bo‘lgan munosabati haqida so‘z ochilar ekan, avvalo, uning o‘z ustozlari haqidagi ta’rif va tasvirlardan boshlash to‘g‘ri va maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu haqda, asosan, hazratning o‘z asarlari, shuningdek, Navoiy shaxsiyati va ijodi haqida o‘z davri hamda keyingi davrlarda yaratilgan asarlar manba bo‘lib xizmat qiladi. Navoiyning murshidlari haqida gap ketganda, shaksiz, ulug‘ xamsanavislar bu ro‘yxatning boshida turadi. Jumladan, “Hayrat-ul-abror”ning XII bobi bevosita Navoiydan oldin “Xamsa” yaratgan buyuk shoirlar, ustozlari - Nizomiy va Xusrav Dehlaviy madhiga bag‘ishlangan.

Navoiy Jomiyga atab maxsus “Xamsatu-l-mutahayyirin” (“Hayratlanganlar beshligi”) nomli besh bo‘limdan iborat asarini yozgan<sup>18</sup>. “Xamsa” dostonlarining har birida Jomiyga alohida boblar ajratgan. Shuningdek, “Majolisu-n-nafois”, “Nasoyimu-l-muhabbat” asarlarida Jomiyga bag‘ishlangan ayrim ravzalar mavjud. “Muhokamatu-l-lug‘atayn”, “Mahbubu-l-qulub” asarlari va “Arba’in”da ham Navoiy o‘z o‘rnida ustoz to‘g‘risida juda iliq va samimiy fikrlarini bildirgan. Yana “Dunyo va oxiratni bir oh ila o‘rtagan pok oshiqlar imomi va mulk va malakutda shoyirlar shayx ul-islomi hazrati murshidiy va mahdumiy nuru-l-millat va-d-din Abdurahmon Jomiydur” (MQ, 67).

Navoiy keyingi xamsanavis – ustoz Dehlaviy haqqiga ham hurmat va ehtirom keltiradi: “... ishq-u dard ahlining rahbar va peshvari Amir Xusrav, Dehlaviy

<sup>16</sup> Mazkur hikoyat dostonning XLVII bobida keltirilgan. *Qarang*: Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. Илмий-танкидий матн (тузувчи Порсо Шамсиев). – Т.: Фан, 1970. – Б. 143-144.

<sup>17</sup> Алишер Навоий. Ҳайрат ул-аброр. Илмий-танкидий матн (тузувчи Порсо Шамсиев). – Т.: Фан, 1970. – Б. 148.

<sup>18</sup> Navoiyshunos olim, yirik matnshunos P. Shamsiyev Navoiyning barcha asarlaridagi Jomiy ta’rifiga oid qismlarini to‘plab, 1958-yilda “Jomiy va Navoiy” asarini chop etgan.

devonikim, oshiqlikda dard-u niyoz va so‘z-u gudoz tarixin ul muntashir qildi va oning ishq mash’alidin bu partav olam tiyra xokdonig‘a yoyildi” (ML, 300).

Bobning ikkinchi fasli “*Navoiy manonqiblarida “ustoz-shogird” an’anasi badiiy ifodasining o‘ziga xosligi*”ga bag‘ishlangan. Alisher Navoiyning nasriy asarlari sifatida (ayrim adabiyotlarda memuar asarlar) qayd etiladigan adabiy-tanqidiy ocherk xarakterini o‘zida aks ettirgan, aslida, tasavvuf adabiyotidagi manqaba (ko‘pligi: manonqib) usulida yozilgan uch asari borki, ularni mohiyatan mumtoz adabiyotshunoslikning yuksak namunasi sifatida qabul etish mumkin. Navoiyning ustozlariga bo‘lgan yuksak hurmat-ehtiromi uning barcha asarlari qatiga singdirilgan. “Xamsa” dostonlarining har birida Jomiyga alohida boblar ajratilgan. “Xamsatu-l-mutahayyirin”da bu ikki hamfikir shaxs munosabatlarining turli tomonlari aks etgan bo‘lsa ham, avvalo, ular o‘rtasidagi haqiqiy ustoz-shogirdlik rishtalari ko‘rsatiladi. Jumladan, asarning “Xotima”sida Navoiy Jomiy huzurida ta’lim olish va foydalanish yuzasidan o‘qigan kitoblari ro‘yxatini birma-bir keltiradi. Ular quyidagilar: “Qofiya”, “Muammo”, “Lavoeh”, “Lavomeh”, “Sharhi ruboiyot”, “Ashi’atu-l-lama’ot”, “Nafahotu-l-uns...”, “Shavohidu-n-nubuvvat...”, “Qudsiya”, “Lama’ot”, “Volidiya”, “Ilohiynoma”. Bundan tashqari, Navoiy “Xamsa” bilan “Haft avrang”ni Jomiy qiyoslash yo‘li bilan ovoz chiqarib o‘qiganida tinglaganini, shuningdek, ba’zi risolalar ular oldida o‘qilmagan bo‘lsa ham, ulardagi ayrim murakkab joylarini ustozidan so‘rab turganini yozadi. Ana shu ma’lumotlar Jomiyning, haqiqatan ham, Navoiyga to‘g‘ridan to‘g‘ri muallim, mudarris, yo‘lboshlovchi, ustoz ekanini yana bir bor isbotlaydi.

Alisherning buyuk Navoiy bo‘lib yetishishidagi kamolotida ustoz-murabbiylari – Pahlavon Muhammad hamda Sayyid Hasan Ardasherlarning o‘rni beqiyosdir. Pahlavon Muhammad o‘z davrining yirik madaniyat arbobi sifatida Navoiy uchun ham ustoz, ham dildosh inson edi. Hazrat bu ilg‘or fikrli shaxs bilan qirq yil davomida yaqin do‘st bo‘lgan va uni o‘zining murabbiyi deb sanagan. Navoiy yozganidek, o‘sha zamon va makonda: “Takallufsiz va mubolag‘asiz podshohdin gadogacha va ahlullohdin yahud va tarsog‘acha Pahlavonni sevmas va tilamas kishi yo‘q erdi” (HPM, 113). Anglashiladiki, “Pahlavon Muhammad insonni qadrlar ekan, uning mansab-martabasi, mazhab va e’tiqodiga ham katta e’tibor qaratmagan, ya’ni umuminsoniy pozitsiyada bo‘lgan. O‘zining keng va teran bilimdonligi, iste’dodi, tantiligi, halolligi, odamiyligi, saxovati, Odam Ato farzandlarini teng ko‘rishi bilan barchaga birdek yaqin va suyuqli shaxs sanalgan”<sup>19</sup>. Navoiy va Pahlavon Muhammad qirq yil davomida do‘st-u hamsuhbat bo‘lganlar: “Qirq yilg‘a yaqin bu faqir bila musohibi joniy, mahrami rozi pinhoni erdi” (HPM, 119). “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” asari – ustoz va do‘sti, komil inson deya sharaflangan Sayyid Hasan Ardasheriga bag‘ishlangan bo‘lsa, “Holoti Pahlavon Muhammad” – “shamsu-l-millat” deb ulug‘langan Pahlavon Muhammad haqida. Bular Navoiy manonqiblari durdonalaridir.

---

<sup>19</sup> Оманова М. Истиклол даври ўзбек романларида шайх валийлар образининг бадий талқинлари. Фил. фан. бўйича фал. док. дисс. – Ж., 2022. – Б. 94.

O‘z davrida Navoiyning maslakdoshi va otasi o‘rnidagi murabbiysi – ustozi Sayyid Hasan Ardasher edi. Navoiy Sayyid Hasanning hayoti so‘ngiga qadar u bilan ota-bola, murshid-u muriddek munosabatni saqlaydi va uning vafotidan ikki yil o‘tgach, “Holoti Sayyid Hasan Ardasher” maxsus risolasini yozib, xotirasini mangulikka joylaydi. Buyuk shoirning bu zotga alohida hurmat va ehtirom bilan qaraganligini yigitlik davrida unga bag‘ishlab she‘riy maktub – masnaviy bitganligi, uning nomini “Majolisu-n-nafois”, “Nasoyimu-l-muhabbat” asarlariga kiritganligi, “Xazoyinu-l-maoniy”dagi tarkibband – marsiyani buyuk zot vafotiga bag‘ishlagani, “Soqiynoma”da uning nomini alohida eslab o‘tgani ham ko‘rsatadi. Navoiy asar yakunida Sayyid Hasan Ardasherining vafoti sanasiga bag‘ishlangan ta‘rix ilova qiladi, unga ko‘ra, bu sana (894) “Jannati pokash makon bod” (“Makoni pok jannatda bo‘lsin”) jumlasida namoyon bo‘ladi:

*Sari xayli fanā Sayyīd Hasan raft,  
Ki jāi o bihišti jāvidān bād.*

*Pai ān pākрав justand ta‘rix,  
Biguftam: “Jannati pākaš makān bād” (HPM, 224).*

(Mazmuni: Fano olamining yetakchisi Sayyid Hasan ketdi. Uning joyi mangu jannat bo‘lsin! U pokiza zot vafotiga ta‘rix qidirdilar. Men “pok jannat makoni bo‘lg‘ay!” deb ta‘rix tushirdim).

Alisher Navoiy holot – manqiblarning tuzilishi, bayon uslubi o‘sha davr nasrining qonun-qoidalari, badiiylik shart-sharoitlariga mos bo‘lib, ularda saj‘ san‘ati, she‘riy parchalar, hikoyat va rivoyatlar ham o‘rinli ishlatilgan. Asarlarda nomlari eslatilgan Abdurahmon Jomiy, Sayyid Hasan Ardasher va Pahlavon Muhammad Kushtigir kabi tarixiy siymolar badiiylik tamoyili asosida qalamga olinganliklari tufayli tarixiy-badiiy obraz tarzida ko‘zga tashlanib turadilar.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi “**Alisher Navoiy ijodida ustoz-shogird an‘anasining yoritilishidagi yondashuvlar**” deb nomlanib, uning “*Navoiy she‘riy merosida ustoz-shogird an‘anasining ifodalanish xususiyatlari*” deb nomlangan birinchi faslida Navoiyning turkiygo‘y shoirlar va ularning ijodiga bergan baholari, mulohaza va fikrlari haqida ilmiy-tahliliy fikrlar yoritilgan. Xususan, “Badoe‘u-l-bidoya” asari debochasida fors-tojik adabiyotidagi salafllari bilan birgalikda, turkiygo‘y shoirlar ijodi haqida ham to‘xtaladi, ularning she‘riyatidagi muhim xususiyatlarni qayd yetadi: “Va uyg‘ur iboratining fusahosidin va turk alfozining bulag‘osidin Mavlono Sakkokiy va Mavlono Lutfiy rahimahumollohkim, birining shirin abyoti ishtihori Turkistonda beg‘oyat va birining latif g‘azaliyoti intishori Iroq-u Xurosonda benihoyatdurur ham devonlari mavjud bo‘lg‘ay”(G‘S, 14). “Qasidada - Xoqoniy, Anvari, Kamol Ismoil, Zahir, Salmondek va masnaviyda ustozi fan Firdavsiy, nodirizamon Shayx Nizomiy, jodui hind Mir Xusravdek, g‘azalda muxtari vaqt Shayx Muslihiddin Sa‘diy, yagonai asr Xoja Hofiz Sheroziydekki, bularning ta‘rifi yuqoriroq chun shammai surulubdur va vasflariga qalam urulubdur” (ML, 32). Navoiy bu yerda Firdavsiyni masnaviy bo‘yicha ustozi sifatida ta‘rif etmoqda.

